

GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARNING BIRINCHI LAKTATSIYASIDAGI BIR NECHA BELGILARI O'RTASIDAGI KORRELYATSIYA KOEFFITSIENTI

Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

Ilmiy maslahatchi: biologiya fanlari doktori, professor

Xujamov Jurabek Nayimovich

q.x.f.f.d.(PhD) dotsent

Muzrobova Mubora Nodirovna

Magistr (Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi laktatsiyalardagi tajriba guruhlaridagi sigirlarining bir nechta belgilari bo'yicha asosiy seleksiyon belgilari o'rtasida korrelyatsiya koeffitsientlari biometrik tahlil etilib, ularning ijobiy o'zaro bog'lanuvchanlik mavjudligi o'rganilgan va olingan natijalar keltirildi.

Annotation: In this state, the correlation of the biometric proanalizirovany coefficients between the basic selection features in the series of priznakov korov opytnykh group and the first lactation, and the positive correlation and the presented results.

Kalit so'zlar: Laktatsiya, korrelyatsiya koeffitsienti, servis davri, seleksiya, ijobiy bo'g'lanish, salbiy bo'g'lanish, golshtin, zot, sut mahsuldorligi, tirik vazn.

Kirish: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida qoramolchilikni barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, chorvachilik sohasining asosiy va bosh tarmog'i qoramolchilikdir. Dunyoning ko'pgina mintaqalarida chorvachilik keskin ravishda rivojlanish tusini olgan, ishlab chiqarishning jadal texnologiyalari o'zlashtirilganligi natijasida barcha turga mansub bo'lgan hayvonlar bosh soni va mahsulot ko'rsatkichi muntazam ravishda oshib bormoqda. Aholini chorva mahsulotlari bilan birgalikda ularni qayta ishlash natijasida olingan iste'mol mahsulotlarini ehtiyoji talab darajasida yetishtirishda butun dunyo mamlakatlarida e'tibor katta.

Shuning uchun ham qoramolchilikni jahon standart talabiga mos ravishda rivojlantirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Materiallar va metodlar: Ilmiy-tadqiqot ishi rejali mavzu doirasida amalga oshirilayotgan izlanish hisoblanib, uning tajriba qismi Samarqand viloyatidagi sut qoramolchiligiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari sharoitida amalga oshirildi. Tajriba uchun kelib chiqishi, tirik vazni, ekstereri jixatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan sigirlarning mahsuldorligi bo'yicha birinchi tug'um sigirlar tanlanib olingan. Tajriba uslubiga binoan I laktatsiyalardagi tajriba guruhlaridagi sigirlarning seleksiya belgilari o'rtasida korrelyatsiya koeffitsienti biometrik tahlil etildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: I laktatsiyalardagi tajriba guruhlaridagi sigirlarining bir nechta belgilari o'rtasidagi seleksiya belgilari bo'yicha korrelyasiya koeffisienti ma'lumotlari 1-jadvalda keltirildi.

Sut miqdori bilan ko'krak aylanasi o'rtasida tajriba guruhlaridagi sigirlarida past ijobiy bog'lanish bo'lgan va guruhlar o'rtasida quyidagi farqlar aniqlandi. Bu ko'rsatkich bo'yicha V guruh sigirlarida yuqori bo'lgan va I, II, III, IV va VI guruh sigirlaridan shunga mos ravishda 0,017%, 0,013%, 0,005%, 0,017%, 0,03% ga yuqori bo'lgan.

Tirik vazn bilan ko'krak aylanasi bo'yicha guruhlarda to'liq ijobiy bog'lanish bo'lgan va II, III, IV, V va VI guruh sigirlaridan I guruh sigirlari quyidagi ketma ketlikga mos ravishda 0,003%, 0,011%, 0,062%, 0,035%, 0,124% ga yuqori bo'lgan.

Sut miqdori bilan servis-davri davomiyligi o'rtasida past salbiy bog'lanish kuzatilgan, bunda I, II, III, IV va VI guruhlariga nisbatan V guruhda shunga mos ravishda 0,011%, 0,009%, 0,004%, 0,01%, 0,037% va 0,018% ga yuqori bo'lgan.


Tirik vazn bilan servis-davri davomiyligi o'rtasida, o'rtacha salbiy bog'lanish kuzatilgan bo'lib, I guruh sigirlarida bu ko'rsatkich II, III, IV, V va VI guruh sigirlaridan mos ravishda 0,008 %, 0,01 %, 0,037 %, 0,018 %, 0,075 % ga yuqori bo'lgan.

90 kunlik sut miqdori bilan sut yog'i chiqimi o'rtasida past ijobiy bog'lanish bo'lgan va bu ko'rsatkich VI guruh sigirlarida I, II, III, IV va V guruhlariga nisbatan mos holatda 0,003%, 0,004%, 0,002%, 0,002%, 0,001% ga yuqori bo'lgan. Bizning olingan ma'lumotlarimiz bir qator tadqiqotchilar xulosalariga mos keladi.

Петрова А.М. ma'lumotlarining ko'rsatishicha, sigirlar yelinining morfologik va funksional xususiyatlari bilan sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari orasida o'zaro ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud, muallifga ko'ra tajriba podasidagi qora-ola zotli sigirlarning mutanosib yelin shakllariga ega bo'lganlari 75 % ga yaqinni tashkil etgan va mutanosib yelin shakllariga sigirlarning 100 boshidan o'rtacha 80 bosh buzoq olingan

I laktatsiyalardagi tajriba guruhlaridagi sigirlarning seleksiya belgilari bo'yicha korrelyatsiya koeffitsienti.

O'zaro bog'lanuvchan belgilar	Guruhlar					
	I	II	III	IV	V	VI
Bosh soni	n=15	n=15	n=15	n=15	n=15	n=15
Sut miqdori bilan ko'krak aylanasi	0,229	0,233	0,241	0,229	0,246	0,216
Tirik vazni bilan ko'krak aylanasi	0,947	0,944	0,936	0,885	0,912	0,823
Sut miqdori bilan servis-davri davomiyligi	-0,142	-0,144	-0,149	-0,143	-0,153	-0,135
Tirik vazni bilan servis-davri davomiyligi	-0,588	-0,580	-0,578	-0,551	-0,570	-0,513
90 kunlik sut miqdori bilan sut yog'i chiqimi	0,274	0,273	0,275	0,275	0,276	0,277



1-rasm. I-laktatsiyalardagi tajriba guruhlaridagi sigirlarning korrelyatsiya koefitsientini aniqlash.

Bu sigirlarniig sut miqdori, sutining sifat darajasi yuqori bo'lganligini tadqiqotlarida ta'kidlagan.

Кузякина Л.И tadqiqotlari natijalarining ko'rsatishicha, ko'krak aylanasi, ko'krak chuqurligi va kengligi yag'rin balandligi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori eksteryeri o'lchamlariga ega bo'lgan sigirlarning tanasi mutanosib rivojlangan bo'lib, ularning sut mahsuldorligi bilan tana o'lchamlari orasida ijobiy korrelyatsion bog'lanish borligini tadqiqotlar o'z tadqiqotlari natijalarida aniqlagan.

Xulosa: Shunday qilib, sutbop qoramolchilikga ixtisoslashgan xo'jaliklarda o'zaro ijobiy bog'langan korrelyatsiya koefitsientlaridan naslchilik ishlarida foydalanish, sigirlar bo'yicha tanlash va juftlash ishlarini amalga oshirib borish, kelib chiqishi, tirik vazni, ekstereri jixatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan sigirlarning mahsuldorligini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Z.S. Mirsaidova, Yu.N. Khudzhomov, Kh.S. Mirsaidov, Dependence of milk productivity of Holstein cows of different breeds on the type of constitution, *Agrobiotechnology*
2. Zuhra Mirsaidova, Mokhigul Narzullayeva, Rasul Amonov, Jurabek Khujamov, Kadyken Rizabek Clinical and hematological indicators of cows belonging to different selections of the holsttin breed by seasons. <https://doi.org/10.1051/bioconf/20249501022> *BIO Web Conf. Volume 95, 2024 III International Conference on Current Issues of Breeding, Technology and Processing of Agricultural Crops and Environment (CIBTA-III-2024)*
3. *Khujamov Jurabek Nayimovich, Soyibjonov Ahmadillo Tohirjono'g'li, Mirsaidova Zuxra Shuxratovna, Kurbanova Shahnoza Ergashevna, Gapparov Shovkhiddin Tazhievich* **WAYS TO INCREASE MILK PRODUCTION USING BIOLOGICAL CHARACTERISTICS AND PARATYPICAL FACTORS OF COWS. *Journal of Advanced Zoology* ISSN: 0253-7214 Volume 44 Special Issue-2 Year 2023 Page 4687:4694**
4. Кузякина Л.И. Изменения экстерера и продуктивности коров чернопестрой породы при голштинизации стад. "Зоотехния", М., 2005, №12 стр,13.
5. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). YOSHLARGA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI SINGDIRISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 1209-1213.
6. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). HARBIY-SPORT MUSOBAQALARINI TASHKILLASH VA O‘TKAZISH. *PEDAGOG*, 6(5), 780-781.
7. Ibragimovich, T. I. (2024). IMPROVING OF PEDAGOGICAL SKILLS OF STUDENTS OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY DURING CONTINUOUS PEDAGOGICAL PRACTICE. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(2), 92-94.
8. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
9. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. *JournalNX*, 7(1), 311-314..
10. Ibragimovich, T. I. (2024). PEDAGOGICAL PROCESSES AND IMPORTANT ASPECTS OF ITS CREATION. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(1), 56-62.